



ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR  
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
2026-yil 30-aprel



**BO'LAJAK RUS TILI O'QITUVCHILARINING MULOQATCHANLIK SIFATLARI  
RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MUHITNING O'RNI VA AHAMIYATI**

**Raximova Zilola Maxmadiyor qizi**

*“Nizomiy” nomidagi*

*O'zbekiston miliy pedagogika universiteti*

*2-kurs tayanch doktoranti*

[mustafo.shamsiddinov.1521@gmail.com](mailto:mustafo.shamsiddinov.1521@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada raqamli muhitda bo'lajak rus tili o'qituvchilarining kommunikativ sifatlarini shakllantirish bo'yicha nazariy qarashlar va ularni amaliyotga tadbiq etish metodikasi yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Raqamli ta'lim, kommunikativ kompetensiya, virtual muhit, pedagogik muloqot, pedagogik etika.*

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimidagi raqamlashtirish jarayonlari pedagogik faoliyatning shakl va mazmunini tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa, filologik ta'lim yo'nalishlarida, xususan, bo'lajak rus tili o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalar sharoitida samarali muloqot o'rnatish qobiliyati (kommunikativ kompetensiya) ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Masofaviy va gibril ta'lim shakllari o'qituvchilaridan nafaqat til qoidalarini bilishni, balki ekran ortidagi auditoriya bilan hissiy va intellektual aloqa o'rnatish mahoratini ham talab qilmoqda. Shu sababli, raqamli vositalar orqali talabalarda muloqotga bo'lgan ehtiyojni uyg'otish va ularning nutqiy faolligini saqlab qolish pedagogik tadqiqotlarning eng dolzarb masalasidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, “ta'lim sifatini oshirish va ilg'or texnologiyalarini joriy etish bugungi kunning dolzarb masalasidir”[1]. Ushbu mulohaza ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni, xususan, raqamli vositalar orqali o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Shu sababli, raqamli ta'lim muhitida bo'lajak rus tili o'qituvchilarining muloqatchanlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishning samarali usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Raqamli ta'limda muloqatchanlik – bu pedagogik etika, texnologik savodxonlik va lingvistik mahoratning sintezidir. Zamonaviy tadqiqotchilarning fikricha, raqamli muloqatchanlik – bu faqat texnik vositalarni boshqarish, balki *raqamli empatiya* qobiliyatidir. Ya'ni bo'lajak pedagog masofaviy darslarda talabaning diqqatini boshqarish uchun nutqining ekspressivligi, intonatsiyasi va vizual vositalar uyg'unligidan mahorat bilan foydalanishi lozim.

Kommunikativ kompetensiya asoschisi, rus olimasi I.A.Zimnyaya ta'limotiga ko'ra, bo'lajak til o'qituvchisining muloqatchanlik sifatleri uning shaxsiy xislati bo'lib, raqamli muhitda bu sifatlar “ijtimoiy-professional kompetensiya” shaklida namoyon bo'ladi[2]. Rus pedagogi



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
2026-yil 30-aprel



A.A.Leontyev esa pedagogik muloqotni "ijtimoiy-psixologik ta'sir o'tkazish san'ati" deb hisoblagan. Uning yondashuviga ko'ra, o'qituvchi darsda "psixologik iqlim" yaratishi shart[3]. Raqamli muhitda bu iqlim ekran orqali, ya'ni video-muloqot va interaktiv chatlar yordamida shakllantiriladi va pedagogning kommunikativ kompetensiyasi bu iqlimni yaratishda yetakchi hisoblanadi.

Bo'lajak pedagogning kommunikativ qiyofasi bir qancha komponentlar asosida shakllanadi.

Birinchi komponent kognitiv komponent bo'lib, unda pedagogdan rus tilining uslubiy sifatlarini, raqamli muloqot netiketlarini bilish talab etiladi. Texnologik komponentda pedagog ta'limiy platformalarning interaktiv imkoniyatlaridan (so'rovnomalar, oq doskalar, breakout rooms) muloqotni stimullashtirish uchun foydalana olishi kerak. Keying komponent - hissiy-irodaviy komponentda bo'lajak pedagog ekranorti talabning psixologik holatini tushungan holda uning muloqotga kirishishdagi qo'rquvlarini bartaraf etishi lozim bo'ladi.

An'anaviy darslarda muloqotchanlik sifatleri yuzma-yuz muloqot, imo-ishora va jonli reaksiya orqali namoyon bo'lsa, raqamli muhitda (LMS platformalari, Zoom, Telegram) bu jarayon ma'lum texnik to'siqlarga duch keladi. Bo'lajak rus tili o'qituvchilari ko'pincha raqamli vositalardan foydalanishda texnik mahoratga ega bo'lsalar-da, rus tilidagi nutqiy madaniyatni virtual muhitda jozibali va tushunarli tarzda taqdim etishda (digital communication skills) qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu esa talabalarda raqamli muloqotchanlik sifatlerini tizimli rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Raqamli ta'lim sharoitida rus tili o'qituvchisining muloqotchanlik sifatlerini rivojlantirish *nutqiy adaptatsiyadan* boshlanadi. Onlayn platformalarda rus tili darslarini tashkil etishda nutqning lo'nda, mantiqiy va grammatik jihatdan mukammalligi juda muhim sanaladi. Chunki aynan shunday muhit raqamli muloqotda "axborot shovqini"ni kamaytirish va asosiy fikrni auditoriyaga tez yetkazib berishni ta'minlab beradi. Talabalarni virtual "Breakout rooms" (kichik guruhlar)da ishlashga yo'naltirish ulardagi *coworking* va hamkorlik xususiyatini shakllantirishda yordam beradi. Rus tilida onlayn chatlar (Telegram, Forum) tashkil qilish ham juda foydali metodlardan biri bo'lib, bu orqali talabalarda nafaqat so'zlashuv, balki akademik muloqot madaniyatini (Netiket) shakllantirish ham oson kechadi. Bu kabi chatlarda grammatik yoki boshqa dolzarb mavzularda bahslar, debatlar uyushtirish bilan talabalarning chat orqali yozma muloqot madaniyatini rivojlantirish mumkin. Undan tashqari talabalar berilgan mavzularda qisqa videolar tayyorlab, ularni o'zlari yoki boshqa talabalar bilan tahlil qilishlari ham samarli raqamli muloqot kalitlaridandir. Bunda ular kamera qarshisida o'zini erkin tutish, intonatsiya va diksiya orqali o'quvchilarning diqqatini ushlab turish, shu bilan birga, boshqalar tarafidan berilgan tanqidlarni to'g'ri qabul qilish va ularga argumentli javob qilish sifatlerini o'zlarida rivojlantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida multimedia vositalari, interaktiv keys-stadi usullaridan foydalanish va yuqoridagi metodlar asosida ishlash bo'lajak pedagoglarning muloqotga kirishish qobiliyatini 35% ga oshiradi. Shuningdek, bu kabi metodlar ularning onlayn



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**2026-yil 30-aprel**



auditoriya bilan ishlash qobiliyatini yaxshi rivojlantiradi, ulardagi nutqiy xatolar va muloqotdagi "pauzalar" soni esa ikki martagacha kamaytiradi.

Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak rus tili o'qituvchisining muloqotchanlik sifatlari uning kasbiy mahoratining ajralmas qismidir. Shuningdek, bu sifat bo'lajak pedagogning zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardoshligini belgilab beradigan asosiy omillardan biridir. Ushbu sifatlarni rivojlantirish uchun oliy ta'lim o'quv dasturlariga "Raqamli pedagogik muloqot" kabi maxsus modullarni kiritish, talabalarni rus tilidagi virtual simulyatsiyalar va treninglarga faol jalb etish tavsiya etiladi. Bu o'z navbatida bo'lajak mutaxassislarining har qanday texnologik muhitda raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim muhitida bo'lajak rus tili o'qituvchilarining muloqotchanlik sifatlarini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar o'quv jarayonini samarali tashkil etish, interaktiv muloqotni yo'lga qo'yish hamda talabalarning nutqiy faolligini oshirishda keng imkoniyatlar yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. Zimnyaya I.A. Pedagogik psixologiya. – M.: Logos, 2004.
3. Leontyev A.A. Psixologiya obsheniya. – M.: Smisl, 1997.